

## FRAZEOLOGIZMLARNING IBORALARNING GRAMMATIK TABIATI USLUBIY VA SEMANTIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

**Saidova Nigorabonu Amanovna**

*Buxoro Innovatsion tibbiyot instituti Umumta'lim va fundamental fanlar kafedrası assistenti*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** frazeologizm, frazeologiya, komponent, ekspressivlik, ibora, leksikologiya, izamorfizim, prefiksial va affeksial.

### Annotatsiya

Frazeologiya tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, ushbu maqolada biz frazeologik birliklarning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilamiz.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Frazeologiya xalqlarning jonli va ajoyib urf-odatları, an-analari va ertaklaridan namunalar jamlangan rasmlar ko'rgazmasiga o'xshaydi. Frazeologiya lug'atlarning nafaqat rang-barang, balki demokratik qatlami hamdir va bu qatlam asosan "jonli" nutq vositasida boyiydi. Frazeologiya dastlab adabiyotshunoslikda o'rganila boshlagan. Ma'lum bir asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda turg'un so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolgan. Frazeologiya atamasi dunyo filologiyasida 1558-yilda ingliz adabiyotshunos olimi Neandr tomonidan birinchi marotaba qo'llanilgan. U badiiy asarlarni tarjima qilgan ekan, shu atamani ishlatishgan.

Frazeologik materiallar ko'pgina qismi lug'at va boshqa adabiyotlarda mujassamlashgan bo'lsada, G'arbiy Yevropa va Amerikaning tilshunoslikka oid adabiyotlarida frazeologiya nazariyasiga oid ilmiy ishlar ham uchraydi. Barcha tillarda frazeologiya leksikologiyaning bir bo'lagi sifatida o'rganilardi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ingliz frazeologiyasini o'rganish Rossiya va boshqa qator mamlakatlarni tilshunoslari ko'pgina ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishdi va ijobiy natijalarga erishildi. Fransuz tilshunosi Sharl Balli frazeologiya atamasini fanga kiritgan bo'lsada, bu atama Amerika va g'arbiy Yevropa tilshunolarining ishlarida o'z aksini topgan. Sh.Balli frazeologiyani stilistika tarkibiga kiritdi. [1] Frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o'rganish masalasi atoqli rus tilshunosi Y.D.Polivanov tomonidan ilgari surildi. Uning ta'kidlashicha, leksika alohida so'zlarning ma'nosini, morfologiya so'zlarning shaklini, sintaksis esa so'z birikmalarining shaklini o'rganadi. Ushbu til sohalari qatorida ma'lum bir so'z birikmalarining ma'nosini o'rganuvchi alohida sohaga ham ehtiyoj seziladi. Polivanov frazeologiyaning tilshunoslikda mustaqil o'rin egallashiga ishonchi komil edi va shunday bo'ldi ham. Frazeologiyani tilshunoslikning mustahkam sohasi sifatida o'rganish masalasi rus olimi V.V.Vinogradov tomonidan ilgari surilgan.[4] Olimning buyuk xizmati shundaki, u frazeologik birlikni semantik jihatdan guruhlarga ajratdi.

Tilshunoslar Y.D.Polivanov va V.V.Vinogradovdan so'ng birinchi bo'lib frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o'rganish masalasini ilgari surgan olim B.A.Larin edi. U frazeologiya sohasida yetarlicha ilmiy ishlar qilinmaganini ta'kidlab o'tdi. A.V.Kuninning fikricha, frazeologiya leksikologiya bo'limi doirasidan chiqqan, uning ko'lami va nufuzi ancha ortdi. Frazeologiya sohasida ko'plab bir-biriga teskari fikrlar bildirilgan bo'lsada, ko'plab ilmiy ishlar qilindi.

N.N.Amosova, A.V.Kunin, B.A.Larin, V.A.Arhangelskiy, V.V.Vinogradov, A.U.Smirnitskiy, S.S.Golerik, I.A.Melchuk, I.I.Revzin kabi tilshunoslarning bu sohaga qo'shgan hissaları buyukdir. Frazeologiya tilshunoslikning umumiy sistemasiga kiruvchi mikrosistema hisoblanadi.

Tilshunos olim V.A.Arhangelskiy frazeologiya sistemasining xususiyatlari shunday tavsiflaydi: "frazeologik sistema o'zida o'tmish merosini, qadriyatlarini aks ettiradi, u avlodan-avlodga o'tadi. Sistemani tashkil qiluvchi frazeologik birikmalarning ko'pligi, til va nutqning boyib borishi – bu omilga asosiy sababdir" deb olim fikrini ma'qullab yozadi B.Yo'ldoshev.[5]

Frazeologik sistemani frazeologik birliklar komponentlari o'rtasidagi munosabatlar tashkil etadi. Frazeologik mikrosistema ikkita bir-biriga bog'liq sistemadan tashkil topgan o'zaro munosabatlar sistemasi va tuzilish sistemasidir. Lekin frazeologiyaga oid ko'kgina savollar, masalalar o'z yechimini kutmoqda, frazeologik birliklarga oid qonuniyatlar to'raligicha ochilmagan, frazeologik daraja va frazeologik ma'no yetarlicha asoslanmagan, qo'shma so'z va frazeologik birlik o'rtasidagi chegara hamma vaqt ham aniq emas, frazeologiya va frazeomatika aniq belgilanmagan.

Shundan kelib chiqib, frazeologizmlarga ta'rif berilsa, u quyidagicha ta'riflanadi: "Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan, grammatik va semantik jihatdan bo'linmaydigan va odatda so'z ekvivalenti bo'lgan til birligi – frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi. [2]

Ingliz tili ham frazeologik birliklarga juda boy bo'lib, ularning ba'zilar quyidagilar: *Red tape, in a brown study, Hobson's choice, to kick th bucket, to live somebody in lurch, to set one's cap at somebody, to stand to one's gun's, to catch a straw.*

Xuddi shunday frazeologizmlar o'zbek tilida uchraydi va ular til lug'at boyligini boyitishga xizmat qiladi. *Qo'y og'zidan cho'p olmagan, og'zi qulog'ida, sirkasi suv ko'tarmaydi, o'takasi yorilmoq, sichqonning ini ming tanga, kovushini to'g'irlab qo'ymoq, yuragiga qil sig'maydi,* kabi.

Frazeologizmlar leksik jihatdan so'zlarning bo'linmaydigan birikmasi. Frazeologizmlar o'ziga xos morfologik va sintaktik tuzilishga ega. Ular tarkibidagi so'zlar grammatik va semantik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq, bir butun ma'no anglatadi. Frazeologizmlar ham xuddi so'zlar kabi shakl va ma'no birligiga ega. So'zning shakily tomonini tovushlar hosil qilsa, frazeologizmlar shakliy tomonini so'zlar hosil etadi.

Frazeologik birliklar va so'zlar sintaktik vazifasiga ko'ra umumiylikka ega. Frazeologizmlar lug'aviy birlik bo'lganidan, xuddi so'zlar kabi gapda bir bo'lak vazifasida keladi.

Masalan: But you know it's **Hobson's choice**. Hozir Hayotning **ko'ngliga qil sig'maydi**.

Bu har ikkala gapdagi frazeologizmlar kesim vasifasida qo'llangan. Frazeologizmlarga ham, so'zlarga o'xshab, ko'p ma'nolilik va omonimlik xos. Frazeologik birliklar va so'zlar o'rtasidagi o'xshashlik **izamorfizm** hodisasidir. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, frazeologizm va so'zlar o'rtasidagi farqlar ham anchagina. Tilshunos olim A.V.Kunin bu ikki til birligi o'rtasidagi quyidagi farqlarni sanab o'tadi. [3]

- 1) So'zlar va frazeologizmlar ham semantik, ham strukturaviy jihatdan farqlanadi.
- 2) Frazeologizmlar frazeologik ma'noga ega bo'lgan so'z birikmasidir. Ular so'z birligi va gaplarning grammatik qolipi asosida yasaladi. So'zlar so'zlardan emas, balki morfema yoki negizdan tashkil topadi. So'zlar leksik ma'noga ega va so'zlarga leksik turg'unlik xos. So'zlar ba'zi qo'shma so'zlardan tashqari, so'z birikmalarining grammatik qolipi asosida yasalmaydi. So'zlar frazeologizmlarga xos bo'lmagan prefiksial va affiksial so'z yasovchi qoliplar asosida yasaladi.
- 3) Frazeologizmlar frazeologik birliklar, so'zlar esa leksik birliklardir. Ular so'z birikmasi yoki gaplar kabi nutq jarayonida hosil bo'lmaydi, balki ular xuddi so'zlar kabi tilda tayyor holda mavjud bo'ladi.

Demak, frazeologizmlar nutq hodisasi emas, balki til hodisasi.

**To kick the bucket, red tape yoki aravani quruq olib qochmoq, nog'orasiga o'ynamoq** kabilar tildagi tayyor lug'aviy birliklardir. Ba'zi frazeologizmlar tuzilishi jihatdan gap shaklida ham bo'ladi va ular nutqda gapning bir bo'lagi vazifasida keladi.

Masalan: **Qo'ling o'rgilsin**, mehmonchilikda uchrashib qolguncha salomat bo'ling.[O.E.]

Erkin so'z birikmasi va frazeologizmlar o'rtasidagi farqlar tahlil qilinsa, erkin so'z birikmasi tarkibiy qismlardan birining yoki bir nechtasining o'zgarishiga yo'l qo'yadi. Ammo bunda boshqa elementlarning ma'nolari o'zgarmaydi. So'z birikmasidagi so'zlar ko'proq semantik mustaqillikka ega. Har qanday komponent boshqasining ma'nosiga ta'sir etmasdan almashinishi mumkin: **to cut bread, to cut cheese, to eat bread.**

Frazeologizmlarda esa bunday holat sodir bo'lmaydi.

Masalan, **red flower** birikmasi tahlil qilinsa, undagi **red** sifatini **yellow, white** sifatlariga almashtirish mumkin. Ammo bu almashinish so'z birikmasida nazarda tutilgan predmetga tegishlilik ma'nosini o'zgartirmaydi (biron bir rangdagi gul). Frazeologizm bo'lgan "**red tape**"da esa red sifatining o'zgartirilishi frazeologizmlar ma'nosining butunlay o'zgarishiga olib keladi. **A blue (black,white) tape – ko'k (qora,oq)** tasma ma'nosini bildiradi.

**Frazeologik iboralar va ularning semantik-grammatik tuzilishi.** Frazeologizmlar frazeologik ma'no va qo'shimcha ottenkalardan iborat bo'ladi. Belgi, harakat kabilar haqidagi frazeologizm ifodalaydigan ma'lumot frazeologik ma'no deyiladi.

Masalan:Endi to'rtinchi rotani ham ratsiya bilan ta'min qilsak, **oshiq olchi bo'lardi.**Bu yerda ekanizni eshitib, hech narsa ko'zimga ko'rinmadi, **uchib bora qolsam** dedimi.(O)

Birinchi misoldagi frazeologizm belgini, ikkinchisidagi esa harakatni bildiradi. Frazeologizmlar so'zlar kabi yaxlit bir ma'no ifodalasada, ammo frazeologik ma'no ko'p jihatdan leksik ma'nodan farqlanadi. Shu sababdan frazeologizmlar so'zlarga misol bo'lgan hollarda ham frazeologik ma'no bir-biriga teng bo'lmaydi. Frazeologik ma'noning hajmi leksik ma'noning hajmiga nisbatan keng, murakkab bo'ladi.

Masalan: a hard nut to crack – a very difficult problem.

Boshida **yong'oq chaqmoq – o'ta darajada azoblanmoq.**

Ko'rinib turibdiki, bu frazeologizmlar ma'nosida "**very**" "**o'ta darajada**" komponenti bor. Frazeologik ma'no yaxlit ma'no bo'ladi, frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar mustaqil ma'noga ega bo'lmaydi. Shuning uchun ayrim frazeologizmlarning komponentlari o'zgarsa ham frazeologik ma'no saqlanadi:

**to stand to one's guns; bir pul – ikki pul – uch pul.**

Keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlar garchi yaxlit ma'no ifodalasada, lekin frazeologik ma'no bilan leksik ma'no tabiati bir xil emas. Frazeologizmlar semantik jihatdan so'zlardan farqli belgi – xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun ham tilda paydo bo'lgan va yashab kelmoqda.

**Iboralarning grammatik tabiati va ichki sintaktik qurilishi.** Frazeologik birikmalarning ifoda plani sifatida kamida ikkita mustaqil so'z qatnashadi. O'zaro bog'langan bu so'zlar mohiyatiga ko'ra birikmaga yoki gapga teng bo'ladi bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik ma'no uni sintaktik birlik deb emas, balki semantik birlik deb qarashga olib keladi.

Umuman, ibora tarkibida qatnashgan so'zlar orasidagi sintaktik bog'lanish o'z kuchini saqlaydi va faqat ichki bo'ladi. Masalan, **ko'ngli og'ridi** iborasi ichki semantik qurilish jihatdan gapga teng, ayni shu birikmaning **ko'nglini og'ritmoq** variant esa birikmaga teng. Bunday sintaktik qayta qurilish bu fe'l iborada nisbat yasaliishi munosabati bilan yuz beradi; o'timsiz fe'l bosh kelishikdagi ot bilan munosabatga kirgan bo'lsa, orttirma nisbat yasovchisini olib o'timli fe'lga aylangach, ot

komponentining bosh kelishigi tushum kelishigiga almashadi. Bunday ikki xil sintaktik qurilish shaklida bo'la oluvchi iboralar anchagina:

**Ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'ldi – ko'zini ko'r, qulog'ini kar qilmoq; ko'zini moshdek ochmoq – ko'zi moshdek ochildi kabi. Ortirma nisbat yasalishi doim sintaktik qurilishini o'zgartirib yubormaydi.**

Masalan, **ko'z oldiga kelmoq – ko'z oldiga keltirmoq** iborasida nisbat yasalishi sintaktik qurilishni – birikmaga teng holatni o'zgartirmaydi, bu yasaliş tufayli ikkinchi variant o'timlilik kashf etadi. Bunday grammatik o'zgarishlar iboraning faqat ifoda planida ro'y berib, uning mazmun planiga ta'sir qilmaydi. Gapga tenglikdan birikmaga tenglikka va aksincha aylanish iboralarning ma'lum bir qismigagina xos bo'lib, qolgan iboralar doimo bir sintaktik qurilish shaklida namoyon bo'ladi.

Masalan: *ko'ziga cho'p solmoq, ko'zini bo'yamoq, ko'z o'ngida* kabi iboralar doim birikmaga teng qurilishli shaklda; *ko'zi yetdi, ko'zi ilindi, ko'zi ko'r – qulog'i kar* kabi iboralar doim gapga teng qurilishli shaklda ishlatiladi.

Misollardan ko'rinadiki, ichki sintaktik qurilishli birikmaga teng iboralar ham, gapga teng iboralar ham yig'iq va yoyiq bo'ladi, odatdagi sintaktik bog'lanishlarda qanday bo'laklar qatnashsa, iboralar tarkibida ham xuddi shunday bo'laklar qatnashsa, iboralar tarkibida ham xuddi shunday bo'laklar qatnashadi.

Xulosa qilganda, frazeologik birliklar tilda alohida sistemani tashkil etadi. Ular semantik-grammatik jihatdan shakllangan iboralardir. Frazeologizmlarning bir-birlari o'rnini ishlatila olish xususiyati substansiya metodi yordamida, ularning turg'un va almashtiruvchi komponentlari o'rtasidagi bog'lanishlar transformatsiya metodi yordamida chuqurroq ochiladi. Frazeologizmlarning structural-sintaktik metodida har bir so'z mustaqil ma'noga ega bo'lmaydi. Frazeologizmlarning komponentlari ikki va undan ortiq bo'lishi mumkin. Ko'p komponentli frazeologizmlar ko'proq maqollarda uchraydi. Bular haqida keying ishlarimizda batafsil fikr yuritimiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Balli Sh. *Общая лингвистика и вопросы французского языка*. –М.: Эдиториал. УРСС. 2001. - 29с
2. Hojiyev A. *Lingvistik terminlarning izohli lug'ati*. –Т.: О'qituvchi. 1985. -144b.
3. Kunin A.V. *Курс фразеологии современного английского языка*. –М.: 1986. -с17-19.
4. Vinogradov V.V. *Лексикология и лексикография*. –М.: 1977. -с46-47
5. Yo'ldoshev B. *Фразеология тарихидан лавҳалар*. Самарқанд. “Сўғдиёна”. 1998. -110б